



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYLLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI..... | 12 |
| I. R. Berdikulova | |
| TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI..... | 16 |
| Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li | |
| Turobova Hulkar Rustamovna | |
| O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH..... | 24 |
| Davletov Ikrom Raximberganovich | |
| VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI..... | 33 |
| Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich | |
| СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ | 38 |
| Абдуллаева М.Б. | |
| AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI..... | 44 |
| Murodov Sherzodbek Murod o'g'li | |
| RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI..... | 51 |
| Kalandarova Elnura Muzaffar qizi | |
| TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH..... | 55 |
| Niyozov Zuxur Davronovich | |
| Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li | |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО | 58 |
| Худойкулова Дилора Дилмуродовна | |
| SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI..... | 64 |
| Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi | |
| XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH..... | 71 |
| Mavlyanova Dilobar Maxkamovna | |
| DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH | 77 |
| Karimova Dilafruz Sadridin qizi | |
| МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ..... | 82 |
| Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи | |
| AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI | 89 |
| Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna | |
| Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi | |
| JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI | 94 |
| Otarbayev Zamir Zairovich | |



| | |
|---|-----|
| SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI | 100 |
| Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich | |
| ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА..... | 107 |
| Дониёрова Зухрабону Алишер кизи | |
| TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI..... | 113 |
| Ho'jamov Akbar Bahriddinovich | |
| KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI..... | 118 |
| Djumayev Askar Xaydarovich | |
| SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURSLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI..... | 123 |
| Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li | |
| Qahhorova Nargiza Qahramonovna | |
| Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li | |
| Jamilov Firdavs Otabek o'g'li | |
| ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ..... | 129 |
| Норкулов Хабибулло | |
| Абдурасулова Шахзода | |
| Бахриддинов Дилшодбек | |
| NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV..... | 135 |
| Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi | |
| SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI | 138 |
| Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich | |
| НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ..... | 147 |
| Джуманов А.А. | |
| BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK VAHOLASH..... | 157 |
| Masharipova Durdona Ulug'bekovna | |
| РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ..... | 164 |
| Джуманов А.А. | |
| DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI..... | 174 |
| Rahmanov Furqat Temirovich | |
| АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН | 179 |
| Ибрагимов Гайратжон Артикович | |
| TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH | 186 |
| Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich | |
| SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILIGIGA TA'SIRI..... | 192 |
| Shakarov Zafar Gafforovich | |



SUN'IY INTELEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILIGIGA TA'SIRI

Shakarov Zafar Gafforovich
G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
Toshkent filiali dotsenti, Phd
Email: zafarshakarov@mail.ru
ORCID: 0009-0001-0750-4637

Annotatsiya: Maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining mehnat unumdorligi va ishchi kuchi mobilligiga ta'siri nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. SI vositalarining ish jarayonlarini avtomatlashtirish, mehnatni kuchaytirish, xodimlar malakasini oshirish va mehnat bozorida kasbiy harakatchanlikni faollashtirishdagi roli ochib berilgan. Jahon iqtisodiy forumi, Xalqaro mehnat tashkiloti, MakKinzi global instituti va Stenford universitetining 2025-yildagi hisobotlari ma'lumotlari asosida SI joriy etilishining iqtisodiy samaralari va ijtimoiy xatarlari baholangan. O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi doirasida inson kapitalini rivojlantirish va mehnat bozorini raqamli transformatsiyaga moslashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, generativ sun'iy intellekt, mehnat unumdorligi, mehnat mobilligi, raqamli transformatsiya, inson kapitali, mehnat bozori, avtomatlashtirish, malaka oshirish, qayta tayyorlash, mehnat bozori polarizatsiyasi.

Аннотация: В статье проведён теоретический и практический анализ влияния технологий искусственного интеллекта (ИИ) на производительность труда и мобильность рабочей силы. Раскрыта роль инструментов ИИ в автоматизации рабочих процессов, повышении эффективности труда, развитии квалификации работников и активизации профессиональной мобильности на рынке труда. На основе данных отчётов Всемирного экономического форума, Международной организации труда, Глобального института McKinsey и Стэнфордского университета за 2025 год оценены экономические эффекты и социальные риски внедрения ИИ. В рамках Стратегии развития технологий искусственного интеллекта в Узбекистане до 2030 года разработаны научно-практические предложения по развитию человеческого капитала и адаптации рынка труда к цифровой трансформации.

Ключевые слова: искусственный интеллект, генеративный искусственный интеллект, производительность труда, мобильность рабочей силы, цифровая трансформация, человеческий капитал, рынок труда, автоматизация, повышение квалификации, переподготовка кадров, поляризация рынка труда.

Abstract: This article provides a theoretical and practical analysis of the impact of artificial intelligence (AI) technologies on labor productivity and workforce mobility. The study highlights the role of AI tools in automating work processes, enhancing labor efficiency, improving employee skills, and stimulating occupational mobility in the labor market. Based on data from the 2025 reports of the World Economic Forum, the International Labour Organization, the McKinsey Global Institute, and Stanford University, the economic benefits and social risks associated with AI adoption are assessed. Within the framework of Uzbekistan's Artificial Intelligence Development Strategy until 2030, scientific and practical recommendations have been developed to strengthen human capital and adapt the labor market to digital transformation.

Keywords: artificial intelligence, generative artificial intelligence, labor productivity, workforce mobility, digital transformation, human capital, labor market, automation, upskilling, reskilling, labor market polarization.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarining barcha bo'g'inlariga jadal kirib bormoqda. SI nafaqat alohida ish operatsiyalarini avtomatlashtirish vositasi, balki mehnat jarayonlarining mazmuni, tashkil etilishi va ishchi kuchiga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartiruvchi umumiy maqsadli texnologiya (general-purpose technology) sifatida e'tirof etilmoqda. Stenford universiteti ma'lumotlariga ko'ra, SI dan kamida bitta biznes-funksiyada foydalanuvchi tashkilotlar ulushi 2023-yildagi 55 foizdan 2024-yilda 78 foizga, generativ SI dan



foydalanuvchilar ulushi esa 33 foizdan 71 foizga o'sdi [14]. MakKinzi kompaniyasining 2025-yilgi global so'roviga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 88 foizga yetgan bo'lib, bu zamonaviy texnologiyalar tarixidagi eng jadal tarqalish sur'atlaridan biridir [11].

Mehnat unumdorligi har qanday mamlakat iqtisodiy o'sishining asosiy omili hisoblanadi. Shu bilan birga, mehnat mobilligi — xodimlarning kasblar, tarmoqlar va hududlar o'rtasida harakatlanish qobiliyati — mehnat bozorining moslashuvchanligini va inson kapitalidan samarali foydalanishni ta'minlaydi. SI texnologiyalari ushbu ikki ko'rsatkichga bir vaqtning o'zida, ammo turlicha yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi, bu esa mazkur muammoni chuqur ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham ushbu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son¹ Farmoni [1] hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son² qarori bilan tasdiqlangan «Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi» [2] iqtisodiyot tarmoqlarida SI yechimlarini joriy etish bo'yicha aniq maqsadli ko'rsatkichlarni belgilab bergan: SI asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSh dollariga yetkazish, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida SI asosida ko'rsatiladigan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish, SI yo'nalishida faoliyat yurituvchi 10 ta ilmiy laboratoriyani tashkil etish hamda mamlakatning Hukumatning SI ga tayyorligi indeksi (Government AI Readiness Index) bo'yicha dunyoning yetakchi 50 ta davlati qatoriga kirishini ta'minlash. Ushbu vazifalarning bajarilishi bevosita milliy mehnat bozorining yangi texnologik sharoitlarga moslashuviga bog'liqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri masalasi xorijiy iqtisodchilar tomonidan keng o'rganilgan. D. Asemog'lu va P. Restrepo o'z ishlarida avtomatlashtirishning «o'rin bosish samarasi» (displacement effect) va «qayta tiklash samarasi» (reinstatement effect) o'rtasidagi muvozanatni tahlil qilib, texnologik taraqqiyot bir vaqtning o'zida ayrim ish o'rinlarini yo'qotishi va yangi vazifalar hamda kasblarni vujudga keltirishini asoslab berganlar [5, B. 3–30]. D. Autor esa SI ning to'g'ri yo'naltirilgan holda o'rta malakali mehnatning qadrini tiklashi va «o'rta sinf» ish o'rinlarini mustahkamlashi mumkinligi haqidagi konsepsiyani ilgari surgan [6].

E. Brinyolfsson va hammualliflari generativ SI vositalarining bilim talab qiluvchi mehnatga ta'sirini yirik empirik ma'lumotlar asosida o'rganib, mijozlarga xizmat ko'rsatish sohasida SI yordamchisidan foydalangan xodimlar unumdorligi o'rtacha 14–15 foizga, kam tajribali va past malakali xodimlarda esa 30 foizdan ortiq oshganini aniqlaganlar [8, B. 889–942]. S. Noy va V. Jangning «Science» jurnalida e'lon qilingan tajriba natijalariga ko'ra, generativ SI yozma-tahliliy vazifalarni bajarish vaqtini o'rtacha 40 foizga qisqartirgan va natija sifatini 18 foizga yaxshilagan [13, B. 187–192].

Mehnat mobilligi nazariyasi doirasida G. Bekkerning inson kapitali konsepsiyasi muhim o'rin tutadi: xodimning malakasi, bilimi va o'rganish qobiliyati uning kasbiy harakatchanligini belgilaydi [7]. Zamonaviy empirik tadqiqotlarda SI ko'nikmalariga ega mutaxassislarning ish haqi ustamasi (AI wage premium) va tarmoqlararo harakatchanligi yuqori ekanligi qayd etilgan. Xalqaro mehnat tashkiloti ekspertlari P. Gmirek, J. Berg va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan kasblarning generativ SI ta'siriga uchrash global indeksi esa kasblar tarkibidagi o'zgarishlarni miqdoriy baholashning uslubiy asosini yaratdi [9]. Akademik Kalandar Abduraxmonovning 2024-yilda chop etilgan "Iqtisodiyotda sun'iy intellekt asoslari" darsligida sun'iy intellektning ish joyiga ta'siri, hozirgi holati, kelajakdagi istiqbollari, uning ish bilan bandlikka va mehnat unumdorligiga ta'siri batafsil tahlil qilingan bo'lsa [3], 2025-yilda esa akademik Kalandar Abduraxmonov va professor Nodira Zokirovalar tomonidan chop etilgan "Sun'iy intellekt davrida mehnat iqtisodiyoti" darsligida sun'iy intellektning mehnat bozori va ijtimoiy-mehnat munosabatlariga ta'siri, mehnatni tashkil etish, ish haqi va motivatsiya, raqamli davrda inson kapitali, sun'iy intellektni joriy etish orqali mehnat unumdorligini oshirish hamda innovatsion yondashuvlar masalalari yoritilgan [4].

Shuningdek, boshqa mahalliy olimlar ishlarida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, ishchi kuchini qayta tayyorlash va raqamli ko'nikmalarni shakllantirish masalalari tadqiq etilgan, biroq SI ning mehnat unumdorligi va mobilligiga kompleks ta'siri alohida tadqiqot predmeti sifatida hali yetarlicha o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi: tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va guruhlash, induksiya va deduksiya, mantiqiy fikrlash usullari. Axborot manbai sifatida xalqaro tashkilotlar — Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Jahon iqtisodiy forumi (JIF),

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

2 <https://www.lex.uz/docs/-7158604>



MakKinzi global instituti, Stenford universitetining inson markazidagi SI instituti (HAI) hisobotlari, nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilgan empirik tadqiqotlar natijalari hamda O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari xizmat qildi. Tahlilda asosan 2023–2025-yillarda e'lon qilingan eng so'nggi ma'lumotlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

SI texnologiyalari mehnat unumdorligini bir necha asosiy kanallar orqali oshiradi:

vazifalarni avtomatlashtirish — takrorlanuvchi, standart operatsiyalarni (ma'lumotlarni kiritish, hujjatlarni qayta ishlash, hisobotlar tuzish) SI zimmasiga yuklash orqali xodimning ish vaqti yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi faoliyatga yo'naltiriladi;

mehnatni kuchaytirish (augmentation) — SI vositalari xodimning tahliliy, ijodiy va kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi: qarorlar qabul qilishda ma'lumotlarga asoslangan tavsiyalar beradi, matn, kod va vizual kontent yaratishda yordam ko'rsatadi;

boshqaruv samaradorligini oshirish — SI asosidagi prognozlash, rejalashtirish va resurslarni optimallashtirish tizimlari ishlab chiqarish yo'qotishlarini kamaytiradi, kadrlarni saralash va baholash sifatini oshiradi;

innovatsion jarayonlarni tezlashtirish — yangi mahsulot va texnologiyalarni ishlab chiqish siklining qisqarishi uzoq muddatda umumiy omillar unumdorligini (TFP) oshiradi.

Empirik tadqiqotlar ushbu samaralarni miqdoriy jihatdan tasdiqlaydi. Brinyolfsson va hammualliflarining 5 mingdan ortiq xodim ma'lumotlari asosidagi tadqiqotida generativ SI yordamchisi soatiga hal qilingan muammolar sonini o'rtacha 14–15 foizga oshirgani, eng katta samara esa aynan kam tajribali xodimlarda kuzatilgani aniqlangan [8]. Bu SI ning malaka bo'yicha «tekislagich» vazifasini bajarishi — yangi xodimlarning tajribali mutaxassislar darajasiga yetib olish muddatini qisqartirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Makroiqtisodiy miqyosda MakKinzi global instituti hisob-kitoblariga ko'ra, generativ SI jahon iqtisodiyotiga yiliga 2,6–4,4 trillion AQSh dollari miqdorida qo'shimcha qiymat qo'shishi mumkin [12]. Goldman Sachs tahlilchilari esa SI keng joriy etilgan taqdirda global mehnat unumdorligi o'sishi yiliga qo'shimcha 1,5 foiz bandga ko'tarilishi va o'n yil ichida jahon yalpi ichki mahsuloti qariyb 7 foizga (taxminan 7 trillion dollarga) oshishi mumkinligini prognoz qilganlar [10]. Bunda samara avvalo bilim talab qiluvchi sohalarida — moliya, dasturiy ta'minot, marketing, ta'lim, tibbiyot va huquqiy xizmatlarda namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, SI ni joriy etish bilan undan real iqtisodiy samara olish o'rtasida sezilarli uzilish mavjud. MakKinzing 2025-yilgi global so'rovi natijalariga ko'ra, tashkilotlarning 88 foizi kamida bitta biznes-funksiyada SI dan foydalansa-da, ularning uchdan ikki qismi hali ham tajriba-sinov (pilot) bosqichida qolmoqda, faqat 6 foizga yaqini SI dan korxonada foydasiga (EBIT) 5 foizdan ortiq hissa olayotgan «yuqori samarali» tashkilotlar toifasiga kiradi [11]. Bu holat iqtisodiy adabiyotda «unumdorlik paradoksi» deb ataluvchi hodisani — texnologiyaga katta sarmoya kiritilgani holda unumdorlikning kutilgan darajada o'smasligini aks ettiradi. Demak, SI ning unumdorlikka ta'siri avtomatik ravishda yuzaga kelmaydi: buning uchun tashkiliy jarayonlarni qayta loyihalash, ma'lumotlar infratuzilmasiga investitsiyalar, xodimlarning raqamli savodxonligini oshirish hamda SI natijalarini sifatli nazorat qilish mexanizmlari zarur.

Mehnat mobilligi kasbiy (kasblar o'rtasida), tarmoqlararo, hududiy va vertikal (mansab pog'onasi bo'yicha) shakllarda namoyon bo'ladi. SI ushbu shakllarning barchasiga ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, SI kasbiy mobillik zaruratini keskin kuchaytiradi. Jahon iqtisodiy forumining «Kasblar kelajagi – 2025» hisobotiga ko'ra, 2030-yilgacha global miqyosda 170 million yangi ish o'rne yaratiladi va 92 million mavjud ish o'rne qisqaradi, ya'ni sof o'sish 78 million ish o'rnini (joriy bandlikning 7 foizini) tashkil etadi; umumiy tarkibiy o'zgarish (structural churn) esa rasmiy ish o'rinlarining 22 foizini qamrab oladi [15]. Ish beruvchilarning 86 foizi 2030-yilgacha SI va axborotni qayta ishlash texnologiyalari o'z biznesini tubdan o'zgartirishini kutmoqda, mavjud ko'nikmalarning 39 foizi esa shu davrgacha eskiradi [15]. Eng tez o'suvchi kasblar qatorida katta ma'lumotlar mutaxassislari, SI va mashinali o'qitish muhandislari, axborot xavfsizligi tahlilchilari qayd etilgan. Bu xodimlardan muntazam qayta malaka oshirish (reskilling) va ko'nikmalarni yangilashni (upskilling) talab etadi: ish beruvchilarning 85 foizi xodimlarni o'qitishni ustuvor vazifa deb biladi, ayni paytda 63 foizi ko'nikmalar taqchilligini transformatsiyaning asosiy to'sig'i sifatida ko'rsatadi.

Ikkinchidan, Xalqaro mehnat tashkiloti va Polsha milliy tadqiqot institutining 2025-yilgi qo'shma tadqiqotiga ko'ra, dunyo bo'yicha har to'rtinchi ish o'rne generativ SI ta'siriga u yoki bu darajada uchraydi, biroq eng yuqori ta'sir toifasiga global bandlikning atigi 3,3 foizi kiradi. Mualliflar asosiy xulosa sifatida ish o'rinlarining ommaviy yo'qolishi emas, balki ularning transformatsiyasi eng ehtimolli ssenariy ekanligini ta'kidlaydilar [9]. Shu bilan birga, ta'sir notekis taqsimlangan: yuqori daromadli mamlakatlarda bandlikning 34 foizi, past daromadli mamlakatlarda esa 11 foizi SI ta'siriga uchraydi; ayollar bandligida eng yuqori ta'sir toifasining ulushi (4,7 foiz) erkaklardan (2,4 foiz) qariyb ikki baravar yuqori. Bu SI ga moslashuv siyosatida gender va hududiy jihatlarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.



Uchinchidan, SI mobillikning o'ziga xos «ko'prigi» vazifasini bajaradi. Raqamli ta'lim platformalari, SI asosidagi personallashtirilgan o'qitish tizimlari va karera navigatorlari xodimga yangi kasbni o'zlashtirish yo'lini qisqartiradi. SI yordamchilari kam tajribali xodimlarning malakali mutaxassislar darajasiga tezroq yetib olishiga imkon berib, kasbiy «kirish to'siqlarini» pasaytiradi va shu orqali kasblararo o'tishni osonlashtiradi.

To'rtinchidan, SI va raqamli platformalar hududiy mobillikning an'anaviy chegaralarini o'zgartiradi. Masofaviy ish formatlari, frilans platformalari va virtual jamoalar tufayli xodim jismonan ko'chib o'tmasdan boshqa hudud yoki mamlakat ish beruvchisi uchun ishlashi mumkin. Bu «virtual mehnat mobilligi» fenomenini yuzaga keltirib, ayniqsa mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar yoshlari uchun global mehnat bozoriga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Beshinchidan, kadrlarni saralash va joy-joyiga qo'yishda SI dan foydalanish mehnat bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirish sifatini oshiradi: intellektual rekruting tizimlari nomzod ko'nikmalari va vakansiya talablarini aniqroq taqqoslab, ishga joylashish muddatini qisqartiradi va kadrlar qo'nimsizligini kamaytiradi. Ayni paytda algoritmik saralashda kamsitish xavfi va shaxsiy ma'lumotlar himoyasi masalalari alohida huquqiy tartibga solishni talab qiladi.

Quyidagi jadvalda xalqaro hisobotlarning SI ning mehnat bozoriga ta'siriga oid asosiy miqdoriy ko'rsatkichlari umumlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval

Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'sirini tavsiflovchi asosiy xalqaro ko'rsatkichlar (2025-yil holatiga)³

| Ko'rsatkich | Qiymati | Manba |
|--|---|--------------------------|
| SI dan kamida bitta biznes-funksiyada foydalanuvchi tashkilotlar ulushi | 88 % (2024-yilda - 78 %) | MakKinzi, 2025 |
| 2030-yilgacha yaratiladigan yangi ish o'rinlari / qisqaradigan ish o'rinlari | 170 mln / 92 mln (sof o'sish +78 mln) | JIF, 2025 |
| 2030-yilgacha eskiradigan ko'nikmalar ulushi | 39 % | JIF, 2025 |
| Generativ SI ta'siriga uchraydigan ish o'rinlari ulushi (dunyo bo'yicha) | 25 % (eng yuqori ta'sir toifasi - 3,3 %) | XMT, 2025 |
| SI yordamchisidan foydalangan xodimlar unumdorligining o'sishi | o'rtacha 14–15 %, kam tajribalilarda 30 % dan ortiq | Brinyolfsson va b., 2025 |
| Generativ SI ning jahon iqtisodiyotiga yillik potensial hissasi | 2,6–4,4 trln AQSh dollari | MakKinzi, 2023 |
| SI tufayli global mehnat unumdorligining yillik qo'shimcha o'sishi (prognoz) | +1,5 foiz bandi | Goldman Saks, 2023 |

Tahlil natijalari SI ning mehnat unumdorligi va mobilligiga ta'sir yo'nalishlarini quyidagicha tizimlashtirish imkonini beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, SI ning mehnat bozoriga ta'siri ijtimoiy xatarlardan xoli emas. JIF ma'lumotlariga ko'ra, ish beruvchilarning 41 foizi SI ayrim vazifalarni avtomatlashtirishi munosabati bilan shtatlarni qisqartirishni rejalashtirmoqda [15]. Ko'nikmalar bo'yicha tabaqalanish — raqamli savodxonlikka ega va ega bo'lmagan xodimlar o'rtasidagi daromad farqining kuchayishi, o'rta malakali kasblarning «yuvilib ketishi» (mehnat bozori polyarizatsiyasi) hamda algoritmik boshqaruvning xodim avtonomiyasiga salbiy ta'siri kabi muammolar davlatning faol mehnat bozori siyosatini taqozo etadi. XMT ekspertlari ta'kidlaganidek, past ta'sir ko'rsatkichi past xatar degani emas: raqamli infratuzilma zaif va mehnat munosabatlari himoyasi yetarli bo'lmagan mamlakatlarda hatto cheklangan miqyosdagi avtomatlashtirish ham zaif tarmoqlarni beqarorlashtirishi mumkin (2-jadval).

³ Muallif tomonidan xalqaro tashkilotlar hisobotlari asosida tuzilgan.

Sun'iy intellektning mehnat unumdorligi va mobilligiga ta'sir yo'nalishlari⁴

| Ta'sir ob'ekti | Ijoiy ta'sir | Xatar va cheklovlar |
|---------------------------|---|---|
| Mehnat unumdorligi | Vazifalarni avtomatlashtirish; qarorlar sifatini oshirish; kam tajribali xodimlar unumdorligining tez o'sishi; innovatsiya siklining qisqarishi | Joriy etish xarajatlari; tashkiliy moslashuv zaruratligi; «unumdorlik paradoksi»; SI natijalariga haddan ortiq ishonish |
| Kasbiy mobillik | Yangi kasblarning paydo bo'lishi; qayta tayyorlashning arzonlashuvi; personallashtirilgan ta'lim; kirish to'siqlarining pasayishi | Ayrim kasblarning qisqarishi; ko'nikmalarning tez eskirishi (2030 yilgacha 39 %); keksa avlod uchun moslashuv qiyinchiliklari |
| Hududiy mobillik | Masofaviy ish va virtual mobillik; global mehnat bozoriga chiqish | Raqamli tengsizlik; mamlakatlar va hududlararo infratuzilma farqlari |
| Mehnat bozori muvofiqligi | Intellectual rekruting; ko'nikmalarni aniq taqqoslash; ishga joylashish muddatining qisqarishi | Algoritmik kamsitish xavfi; shaxsiy ma'lumotlar himoyasi masalalari |
| Ijtimoiy tenglik | Past malakali xodimlar uchun malaka «tekislagichi» samarasi | Mehnat bozori polyarizatsiyasi; gender tafovuti (ayollar bandligida yuqori ta'sir - 4,7 % vs 2,4 %); daromadlar tabaqalanishi |

O'zbekiston sharoitida SI ning mehnat unumdorligi va mobilligiga ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun quyidagi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi: iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida (qishloq xo'jaligi, energetika, bank-moliya, davlat xizmatlari, ta'lim va sog'liqni saqlash) SI yechimlarini bosqichma-bosqich joriy etish; oliy va professional ta'lim dasturlariga SI, ma'lumotlar tahlili va raqamli savodxonlik modullarini integratsiya qilish; milliy malaka tizimini raqamli ko'nikmalar talablari bilan uyg'unlashtirish; ish beruvchilarni xodimlarni qayta tayyorlashga rag'batlantiruvchi mexanizmlarni (soliq imtiyozlari, subsidiyalar, hammoliyalashtirish) joriy etish; masofaviy va platforma bandligini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish; ayollar va yoshlarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadli dasturlarni kengaytirish.

Xulosa va takliflar

O'tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

– sun'iy intellekt mehnat unumdorligini oshirish va mehnat mobilligini kuchaytirishning strategik omili bo'lib, uning samarasi texnologiyaning o'zidan ko'ra uni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy shart-sharoitlariga ko'proq bog'liqdir: SI dan foydalanuvchi tashkilotlarning 88 foizidan faqat 6 foizga yaqini sezilarli moliyaviy samaraga erishmoqda;

– SI xodimni to'liq o'rin bosishdan ko'ra, uning mehnatini kuchaytirish orqali ta'sir ko'rsatadi; eng katta unumdorlik o'sishi (ayniqsa, kam tajribali xodimlarda 30 foizgacha) «inson + SI» hamkorlik modelida qayd etiladi, bu esa XMT ning «transformatsiya, almashtirish emas» degan xulosasini tasdiqlaydi;

– SI mehnat mobilligining barcha shakllarini — kasbiy, tarmoqlararo, hududiy va virtual mobillikni faollashtiradi: 2030-yilgacha global mehnat bozorida 22 foizlik tarkibiy o'zgarish va ko'nikmalarning 39 foizining yangilanishi kutilmoqda, bu esa uzluksiz ta'lim va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini hal qiluvchi omilga aylantiradi;

– SI joriy etilishining ijtimoiy xatarlari (ko'nikmalar tabaqalanishi, mehnat bozori polyarizatsiyasi, gender tafovuti, algoritmik kamsitish) davlat, ish beruvchilar va ta'lim muassasalarining muvofiqlashtirilgan siyosatini talab qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekistonda «Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi»ni amalga oshirish doirasida quyidagilar maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: inson resurslarini boshqarish amaliyotiga SI asosidagi unumdorlikni baholash va kadrlar salohiyatini prognozlash tizimlarini joriy etish; korxonalarda xodimlarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirishning korporativ dasturlarini ishlab chiqish va ularni davlat tomonidan hammoliyalashtirish mexanizmlarini yaratish; mehnat bozori monitoringida SI tahliliy vositalaridan foydalanishni kengaytirish hamda kasblarning SI ta'siriga uchrash darajasini milliy miqyosda baholash (XMT metodologiyasi asosida) bo'yicha tadqiqotlarni yo'lga qo'yish.

⁴ Muallif tomonidan xalqaro tashkilotlar hisobotlari asosida tuzilgan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son qarori // URL: <https://www.lex.uz/docs/-7158604>
3. Абдурахмонов Қ.Х. Иқтисодиётда сунъий интеллект асослари [Матн]: дарслик / Қ.Х. Абдурахмонов –Тошкент: Ilm-ziyo-zakovat, 2024. – 408 б.
4. Абдурахмонов, К.Х., Зокирова, Н.К. Сунъий интеллект даврида меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. – Т.: "ILM-MA'RIFAT" нашриёти, 2025. – 356 бет.
5. Acemoglu D., Restrepo P. Automation and New Tasks: How Technology Displaces and Reinstates Labor // Journal of Economic Perspectives. - 2019. - Vol. 33, No. 2. - P. 3–30.
6. Autor D. Applying AI to Rebuild Middle Class Jobs // NBER Working Paper No. 32140. - Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research, 2024.
7. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. 3rd ed. - Chicago: University of Chicago Press, 1993. - 390 p.
8. Brynjolfsson E., Li D., Raymond L. Generative AI at Work // The Quarterly Journal of Economics. - 2025. - Vol. 140, No. 2. - P. 889–942.
9. Gmyrek P., Berg J., Kamiński K. et al. Generative AI and Jobs: A Refined Global Index of Occupational Exposure // ILO Working Paper 140. - Geneva: ILO, 2025.
10. Goldman Sachs. The Potentially Large Effects of Artificial Intelligence on Economic Growth // Global Economics Analyst. - 2023.
11. McKinsey & Company. The State of AI in 2025: Agents, Innovation, and Transformation. - McKinsey QuantumBlack, 2025.
12. McKinsey Global Institute. The Economic Potential of Generative AI: The Next Productivity Frontier. - McKinsey & Company, 2023.
13. Noy S., Zhang W. Experimental Evidence on the Productivity Effects of Generative Artificial Intelligence // Science. - 2023. - Vol. 381, No. 6654. - P. 187–192.
14. Stanford University HAI. Artificial Intelligence Index Report 2025. - Stanford: Institute for Human-Centered AI, 2025.
15. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2025. - Geneva: WEF, 2025.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>